“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MURODOV SARDOR NORMUMIN O‘G‘LI

YUQORI EGRILIK HADLARIGA EGA BO‘LGAN GRAVITATSIYA NAZARIYALARIDA YANGI SKALYARIZATSIYALANGAN YECHIMLAR

01.04.02 – Nazariy fizika

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand–2022

UDK: 530.12:531.51

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MURODOV SARDOR NORMUMIN O‘G‘LI

YUQORI EGRILIK HADLARIGA EGA BO‘LGAN GRAVITATSIYA NAZARIYALARIDA YANGI SKALYARIZATSIYALANGAN YECHIMLAR

01.04.02 – Nazariy fizika

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand–2022

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/FM570 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiiame.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:	**Ibadov Rustam Mustafaevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor **Jutta Kunz** Dr., professor, Oldenburg universiteti, Germaniya
Rasmiy opponentlar:	**Narzilloev Bakhtiyor Murot o'g'li** fizika-matematika fanlari doktori **Yves Brihaye** Dr., professor, Mons universiteti, Belgiya
Yetakchi tashkilot:	**Al-Farabi nomidagi Qozoq milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va Amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil «14» oktabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahar, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Tel.: (+99871) 237-19-31; faks: (+99871) 237-38-79; e-mail: ifar@tiiame.uz)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (95 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahar, universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil «30» sentabr kuni tarqatildi.
(2022-yil «30» sentabr dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).

B.J. Ahmedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

E.X. Karimbaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

A.B. Abdikamalov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.d.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar modernizatsiyalangan Eynshteyn maydon tenglamalarining yangi yechimlari nafaqat qora tuynuklar, balki yumronqoziq inlari (wormholes) ham mavjudligini bashorat qilmoqda. Adabiyotlarda yumronqoziq inlari koinotning olis mintaqalarini bog‘laydigan “tunnellar” yoki turli koinotlarni bog‘laydigan “ko‘priklar” deb nomlanadi. Dastlab, 1935-yilda yumronqoziq ini (Eynshteyn-Rozen ko‘prigi) yechimini Eynshteynning o‘zi taklif qilgan. Bu sohada M.S.Morris, K.S.Thorne va U.Yurtseverlarning fundamental ishlari va J.A.Wheelerning geometrodinamikasi zamonaviy tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Yumronqoziq ini yechimlarini uzoq vaqtlardan buyon tadqiq qilinishining sabablaridan biri bu insoniyat uchun yulduzlararo va Galaktikalararo uzoq masofalarga sayohat qilish imkoniyating vujudga kelishidir. Shu sababdan yumronqoziq inlari tabiatini nazariy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Dunyo ilm-fanida so‘ngi o‘n yilliklarda yumronqoziq inlarini o‘rganish alohida dolzarblikka ega bo‘ldi. Bu materiyaning “ekzotik” shakllariga zamonaviy qiziqishlar bilan bog‘liq. Ma’lumki, Yumronqoziq inlari mavjudligi uchun materiyaning qandaydir ekzotik shakli zarur bo‘lib, bu esa bir qator energetik shartlarni buzadi. Bugungi kunda, bu kabi materiya koinotda mavjud bo‘lishi mumkinligi haqidagi dalillar mavjud. Bu birinchi navbatda, “qora energiya” deb nomlangan yangi ekzotik moddani kiritishni talab qiladigan olamning tezlashtirilgan kengayishining kashf qilinishi bilan bog‘liq. Ammo, ayrim alternativ gravitatsiya nazariyalarida energetik shartlarni buzilishi gravitasiyon o‘zaro ta’sir tufayli ham bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Chunki ushbu alternativ nazariyalarda hechqanday ekzotik materiyaning ishtirokisiz ham energetik shartlarini buzilishiga olib keluvchi effektektiv energiya-impuls tenzori hosil bo‘ladi. Ushbu alternativ gravitatsiya nazariyalardan eng diqqatga sazovvorlari, bu Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet va Eynshteyn-skalyar-Chern-Simons nazariyalari bo‘lib, hozirgi kunda ushbu nazariyalarda yumronqoziq inlarini o‘rganish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda fundamental va amaliy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlarini rivojlantirishga tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda. Xususan, istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lgan astrofizik tadqiqotlarni rivojlantirish bugungi kunning muhim masalasidir. Yurtimizda ilm-fanning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun fundamental tadqiqotlar va ishlanmalarning asosiy yo‘nalishlari va ularni amaliy qo‘llash O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasida[1] o‘z aksini topgan. Shu sababli, fundamental tadqiqotlar sohasida yuqori egrilikli gravitatsiya nazariyalarida skalyarizatsiyalangan yechimlarni tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-yanvardagi № PF-60 son farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarini hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda yuqori egrilik hadlariga ega bo‘lgan gravitatsiya nazariyalarida skalyarizatsiyalangan yechimlarni topish bo‘yich ko‘plab fundamental izlanishlar olib borilgan, jumladan: G.Antoniou, A.Bakopoulos, P.Kanti, B.Kleihaus, va J.Kunz (Minnesota universiteti, AQSh; Ioannina universiteti, Gretsiya; Oldenburg universiteti, Germaniya) tadqiqotlari bir qancha bog‘lanish funksiyalari uchun Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet nazariyalarida yangi turdagi yumronqoziq ini yechimlariga olib kelgan. Bu yumronqoziq inlari bir va ikki bo‘g‘izdan iborat bo‘lib, hech qanday ekzotik materiyani talab qilmaydi. Shuningdek, skalyarizatsiyalangan qora tuynuk yechimlarini ham topishgan. P.Kanti, B.Kleihaus, and J.Kunz (Ioannina universiteti, Gretsiya; Oldenburg universiteti, Germaniya) ishlarida Eynshteyn-Gauss-Bonnet dilatonik nazariyalarda va to‘rt o‘lchamli fazo-vatda har qanday ekzotik materiyalarning ishtirokisiz o‘takazadigan yumronqoziq inlari va ularning mavjud bo‘lish sohalari aniqlangan. Shuningdek, ushbu yumronqoziq inlarining xususiyatlarini, ularning radial g‘alayonlanishlarga nisbatan chiziqli barqaror bo‘lishini va umumiy Smarr munosabatlarni aniqlashgan.

J.L. Blázquez-Salcedo, D. D. Doneva, S. Kahlen, J. Kunz, P. Nedkova, and S. S. Yazadjiev (Tubingen universiteti, Oldenburg universiteti, Germaniya; Sofiya universiteti, Matematika va informatika instituti, Bolgariya) izlanishlarida Eynshteyn-Gauss-Bonnet nazariyalarida spontan skalyarizatsiyalangan qora tuynuklarning qutbli kvazinormal modellari va aksial g‘alayonlanishlari o‘rganilgan. Ular qutbli kvazinormal modellarni hisoblashgan va yechimlar to‘plamini qutbli g‘alayonlanishlarga nisbatan stabil ekanligini ko‘rsatishgan.

Rossiyalik olimlar Kirill Bronnikov va Roman Konoplya hamda Chexiyalik olim Thomas Pappaslar birgalikda ixchamlashtirilgan radial koordinatada davomli fraksiya kengayishiga asoslangan metod yordamida gravitatsiyaning ixtiyoriy metrik nazariyasida statik, sferik, simmetrik o‘tkazadigan Lorents yumronqoziq ini geometriyalari uchun umumiy parametrlashni ishlab chiqishgan.

O‘zbekistonlik olimlar, Bobomurat Ahmedov va Sanjar Shaymatovlar Eynshteyn-Gauss-Bonnet nazariyasining to‘rt o‘lchovli chegarasida qora tuynuk yechimini qarab chiqishgan va tashqi magnit maydon mavjud bo‘lganda fazovaqtda zaryadlangan zarrachalarning harakatini o‘rganishgan. Gauss-Bonnet bog‘lanishi yo‘qolganda yechim Shvarsshild holatiga tushadi. Zaryadli zarralarning aylanma orbitalari uchun eng barqaror aylanma orbitadagi Gauss-Bonnet bog‘lanishining effektini topishgan va gorizot yaqinida to‘qnashuv energiyasini aniqlashgan.

So‘nggi yillarda nashr etilgan ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda, modernizatsiyalangan gravitatsiya nazariyalarida qora tuynuklar va yumronqoziq inlarining xususiyatlarini to‘laqonli tushuntira oladigan yagona nuqtai nazar yo‘q, bu esa bayon etilayotgan ilmiy muammo chegarasida yangi nazariy tadqiqotlar o‘tkazishni yanada dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, Fizika fakulteti Nazariy fizika va kvant elektronika kafedrasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Nazariy fizikaning hozirgi zamon muammolari bo‘yicha izlanishlar” ilmiy-tadqiqot mavzusiga binoan olib borilgan. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan № ФЗ-20200929385 “Eynshteyn tenglamalarining Qora tuynuklar (Black holes) va Yumronqoziq inlari (Wormholes) uchun yangi yechimlari” loyihasi doirasida ham bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi yuqori egrilik hadlariga ega bo‘lgan Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet va Eynshteyn-skalyar-Chern-Simons gravitatsiya nazariyalarida skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlarini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Massa hadi va o‘zaro-ta’sirlashuv hadlarini o‘z ichiga olgan skalyar maydon uchun Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet gravitatsiya nazariyalarida potensialga ega bo‘lgan yumronqoziq ini yechimlarini topish;

Gauss-Bonnet bog‘lanish doimiysini o‘zgartirib, Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet gravitatsiya nazariyalarida yumronqoziq inlarining mavjud bo‘lish sohasi chegaralarini aniqlash;

bir bo‘g‘izli va ekvatorga ega ikki bo‘g‘izli yumronqoziq inlarining fizik xususiyatlarini, shu jumladan ularning massalarini, o‘lchamlarini va geometriyalarini o‘rganish;

yuqori egrilikli gravitatsiya nazariyalarida Newman-Unti-Tamburino zaryadiga ega skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlarini olish;

bog‘lanish parametri va skalyar zaryadni o‘zgartirish orqali Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet va Eynshteyn-skalyar-Chern-Simons gravitatsiya nazariyalarida skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlarini aniqlash va ularni Newman-Unti-Tamburino zaryadiga bog‘liqligini o‘rganish.

Tadqiqotning ob’yekti yuqori egrilikli gravitatsiya nazariyalari va yumronqoziq inlari.

Tadqiqotning predmeti yuqori egrilikli hadlar, effektiv ta’sir integrali, Eynshteyn va skalyar maydon tenglamalari, metrikalar, Israel bog‘lanish shartlari, nol energetik shart.

Tadqiqotning usullari. Maydon tenglamalarini qisqartirish to‘rtta bog‘langan, chiziqli bo‘lmagan, oddiy differensial tenglamalar sistemasiga olib keladi. Ushbu bog‘langan oddiy differensial tenglamalar sistemasining raqamli bog‘lanishi chekli element metodidan foydalanilib, COLSYS dasturlar paketi yordamida amalga oshirildi. Boshlang‘ich qiymat masalasi sifatida oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun to‘rtinchi tartibli Runge Kutta usulini qo‘lladik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet gravitatsiya nazariyalarida skalyar o‘zaro ta’sirlashuv potensialga ega bir va ekvator bilan chegaralangan ikki bo‘g‘izli yumronqoziq ini yechimlari olindi va Gauss-Bonnet bog‘lanish doimiysi o‘zgartirilib, ushbu gravitatsiya nazariyalarida yumronqoziq inlarining mavjud bo‘lish sohasi aniqlangan;

yuqori egrilik hadlariga ega Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet va ilk bor Eynshteyn-skalyar-Chern-Simons gravitatsiya nazariyalarida bog‘lanish parametri va skalyar zaryad o‘zgartirilib, yangicha skalyarizatsiyalangan Newman-Unti-Tamburino yumronqoziq inlarining mavjud bo‘lishi, hamda ularning Newman-Unti-Tamburino zaryadiga bog‘liqligi aniqlangan;

Gauss-Bonnet invarianti holatida va Newman-Unti-Tamburino zaryadining yo‘qolish chegarasida skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlari to‘plamiga erishildi. Chern-Simons invarianti holatida esa, Newman-Unti-Tamburino zaryadining kamayishi va bog‘lanish doimiysing o‘zgarishi sababli, ushbu yumronqoziq ini yechimlar chegaralari o‘ziga xos bo‘lgan ikki sohaga ajralishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Amalga oshirilgan tadqiqotlar, umuman olganda, Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet va Eynshteyn-skalyar-Chern-Simons gravitatsiya nazariyalarida, yumronqoziq ini yechimlarining olinishi va o‘rganilishi, ushbu astrofizik ob’ektlar haqidagi tushunchamizni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, bu esa bunday ob’yektlarning tabiati va fizik xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Gravitatsiya nazariyasidagi zamonaviy tadqiqotlar bizga yumronqoziq inlarining fizik jihatlarini tushunishga imkon beradigan yangi modellarni taklif qilishga imkon yaratadi. Ushbu yumronqoziq inlarining xususiyatlari, ulardagi ta’sir etuvchi kuchlar va maydonlar insoniyatni kosmosda uzoq masofalarga harakatlanish muammolarini hal qilishga yaqinlashtiradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida o‘rganilgan yumronqoziq ini yechimlari, gravitatsion nazariyalar sohasidagi fundamental tadqiqotlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uzluksizligi, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga zid bo‘lmasligi, ba’zi hollarda olingan qiymatlarning umumiy qabul qilingan pozitsiyalarga o‘xshashligi yoki to‘liq mos kelishi, amalga oshirilgan matematik almashtirishlar va hisob kitoblarning to‘g‘riligi, asosiy natijalarning yetuk ilmiy nashirlarda chop etilishi, shuningdek, seminar va konferensiyalarda bir necha bor muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, erishilgan natijalar yuqori egrilikka ega boʻlgan gravitatsiya nazariyalarida skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlariga oʻxshash astrofizik obʼyektlar haqidagi tushunchalarimizni yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu dissertatsiya ishi nazariy xarakterga ega boʻlib, olingan natijalardan yumronqoziq inlarini va qora tuynuklarni yanada chuqurroq oʻrganish va kosmologiyadagi zamonaviy tadqiqotlarni tushuntirish uchun foydalanish mumkin. Demak, dissertatsiya ishining natijalarini nazariy fizika yoʻnalishida tahsil olayotgan magistrantlar va doktorantlar uchun oʻquv jarayoniga qoʻllasa boʻladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori egrilik hadlariga ega boʻlgan gravitatsiya nazariyalarida yangi skalyarizatsiyalangan yechimlarni oʻrganish boʻyicha olingan natijalar asosida:

Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet gravitatsiya nazariyalarida skalyar oʻzaro taʼsirlashuv potensialga ega bir va ekvator bilan chegaralangan ikki boʻgʻizli yumronqoziq ini yechimlarini tadqiq etish davomida olingan natijalar xalqaro ilmiy jurnallarda (Physical Review D 103, 124062, 2021; Physical Review D 104, 024048, 2021; Physical Review D 104, 044006, 2021; The European Physical Journal C, Vol.81, 285, 2021; The European Physical Journal C, Vol.81, 858, 2021; Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, 10(2021)059; Journal High Energy Physics, 104, 2021; Nuclear Physics B, Vol.980, 115848, 2022; Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, 05(2022)022) va DFG RTG 1620 “Models of Gravity” loyihasi doirasida foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi yuqori egrilikli gravitatsiya nazariyalarida qora tuynuk va oʻtkazadigan yumronqoziq ini yechimlarining mavjud boʻlish sohalarini aniqlash imkonini bergan;

yuqori egrilik hadlariga ega boʻlgan gravitatsiya nazariyalarida yangi skalyarizatsiyalangan yechimlarini tadqiq etish davomida olingan natijalar Rossiya Federatsiyasi fan va oliy taʼlim vazirligining № 0723-2020-0041 “Elementar zarralar va kosmologiyaning asosiy xossalari” loyihasi, “RFBR 19-02-00346” loyihasi, va Malayziya texnologiya universitetining Q.J130000.2626.14J72 loyihasi doirasida foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi yuqori egrilikli gravitatsiya nazariyalarida qora tuynuk va yumronqoziq inlarini mavjudligi va xossalariga oid nazariy natijalarning muhim ilmiy asosli xulosalarini oqilona tushuntirishga imkon bergan;

Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet va Eynshteyn-skalyar-Chern-Simons gravitatsiya nazariyalarida skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlarini aniqlash va ularni Newman-Unti-Tamburino zaryadiga bogʻliqligini oʻrganish boʻyicha olingan natijalar xalqaro ilmiy jurnallarda (Journal High Energy Physics 104 (2021); The European Physical Journal C, Vol.82, 238, 2022; Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, 05(2022)022) va “European COST action CA16104” loyihasida foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi massaga ega boʻlmagan zaryadli yumronqoziq ini yechimlarini va yumronqoziq ini yechimlarining katta sinfini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 10 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruzalar qilinib, tegishli muhokamalardan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatida 6 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 98 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzusining dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi va tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’yekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, ishonchliligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, natijalarining aprobatsiyasi, natijalarining e’lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Umumiy nisbiylik va modernizatsiyalangan gravitatsiya nazariyalari**” deb nomlangan va unda Schwarzschild yechimlari, yumronqoziq inlari va Eynshteyn-Rosen ko‘prigi, modernizatsiyalangan gravitatsiya nazariyalari va yuqori egrilikli nazariyalarga doir muhim ma’lumotlar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, asosiy e’tibor nazariy yo‘l bilan olingan natijalarga qaratildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet nazariyalarida skalyar o‘zaro ta’sirlashuv potensialiga ega yumronqoziq inlari**” deb nomlangan va unda Massa hadi va o‘zaro-ta’sirlashuv hadlarini o‘z ichiga olgan skalyar maydon uchun Eynshteyn-skalyar-Gauss-Bonnet (EsGB) nazariyalarida potensialga ega bo‘lgan yumronqoziq inlari ko‘rib chiqilgan. Gauss-Bonnet (GB) bog‘lanish doimiysi o‘zgartirilib, ushbu nazariyalarda yumronqoziq inlarining mavjud bo‘lish sohasining chegaralari aniqlangan. O‘zaro ta’sirlashuvning ishtiroki mavjud bo‘lish sohasini sezilarli darajada kengaytirdi. Bunda bir bo‘g‘izli yumronqoziq inlari va ikki bo‘g‘izli, ekvatorli yumronqoziq inlari hosil bo‘ladi. Ushbu yumronqoziq inlarining fizik xususiyatlari, shu jumladan ularning massalari, o‘lchamlari va geometriyalari tadqiq qilingan.

EsGB nazariyalarida quyidagi effektiv ta’sir integralidan foydalanilgan,

$$S=\frac{1}{16\pi}\int d^4x\sqrt{-g}\left[R-\frac{1}{2}\partial_\mu\phi\partial^\mu\phi-U(\phi)+F(\phi)R_{GB}^2\right], \qquad (1)$$

bu yerda R skalyar egrilik, ϕ esa $U(\phi)$ potensialga ega skalyar maydon va

$$R_{GB}^2 = R_{\mu\nu\rho\sigma}R^{\mu\nu\rho\sigma} - 4R_{\mu\nu}R^{\mu\nu} + R^2, \tag{2}$$

kvadratik Gauss-Bonnet hadi. Skalyar maydon $F(\phi)$ bog‘lanish funksiyasi orqali R_{GB}^2 kvadratik Gauss-Bonnet hadiga biriktiriladi.

Eynshteyn tenglamalari (3) va skalyar maydon tenglamalari (4) ta’sir integralini metrika va skalyar maydon bo‘yicha variatsiyalashdan hosil bo‘ldi va nuqta ϕ skalyar maydon bo‘yicha hosilani bildiradi.

$$G_\mu^\nu = T_\mu^\nu, \tag{3}$$

$$\nabla^\mu \nabla_\mu \phi + \dot{F}(\phi) R_{GB}^2 - \dot{U}(\phi) = 0. \tag{4}$$

Effektiv energiya-impuls tenzori quyidagi shakilni oladi

$$\begin{aligned} T_{\mu\nu} = &-\frac{1}{4} g_{\mu\nu}\left(\partial_\rho\phi\partial^\rho\phi + 2U(\phi)\right) + \frac{1}{2}\partial_\mu\phi\partial_\nu\phi \\ &-\frac{1}{2}\left(g_{\rho\mu}g_{\lambda\nu} + g_{\lambda\mu}g_{\rho\nu}\right)\eta^{\kappa\lambda\alpha\beta}\tilde{R}^{\rho\gamma}_{\alpha\beta}\nabla_\gamma\partial_\kappa F(\phi) \end{aligned}, \tag{5}$$

bu yerda $\tilde{R}^{\rho\gamma}_{\alpha\beta} = \eta^{\rho\gamma\sigma\tau}R_{\sigma\tau\alpha\beta}$ va $\eta^{\rho\gamma\sigma\tau} = \epsilon^{\rho\gamma\sigma\tau}/\sqrt{-g}$ almashtirishlar bajarildi.

Barqaror, sferik simmetrik yumronqoziq ini yechimlariga erishish uchun quyidagi chiziqli element shaklidan foydalanildi,

$$ds^2 = -e^{f_0}dt^2 + e^{f_1}\left[d\eta^2 + h^2\left(d\theta^2 + \sin^2\theta d\varphi^2\right)\right]. \tag{6}$$

Bunda $h^2 = \eta^2 + \eta_0^2$ yordamchi funksiya bo‘lib, η_0 esa o‘lchamsiz parametr. Ikkita f_0, f_1 metrik funksiyalar va ϕ skalyar maydon funksiyasi faqat η radial koordinataning funksiyalari.

Metrika va skalyar maydon uchun (6) tenglama orqali almshtirishishlar o‘tkazildi. Natijada (4) skalyar maydon va (3) Eynshteyn tenglamalari to‘rtta bog‘langan, chiziqli bo‘lmagan, oddiy differensial tenglamalar (ODT) ga olib keldi. To‘rtta ODTlardan uchtasi ikkinchi tartibli va bittasi birinchi tartibli. Ammo, tenglamalardan faqat uchtasi mustaqil. Sonli tahlilimizda birinchi va ikkita ikkinchi tartibli ODTlar yechildi.

1-rasmda $-g_{tt}$ va $g_{\eta\eta}$ metrik komponentalarni, ϕ skalyar maydonni va R_C sferik radiusni η radial koordinataga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Ikkita erkin parametrlar, α bog‘lanish doimiysi va markazdagi ϕ_c skalyar maydon qiymati uchun biz quyidagilarni tanladik: (a) qora tuynuk chegarasiga yaqin ϕ_c ning qiymati uchun $(1.4, -0.067)$, (b) ϕ_c ning kichik qiymati uchun $(1.4, -0.95)$.

Metrik funksiya $-g_{tt}$ har doim monoton ravishda markazdagi kichik qiymatdan o‘zining asimptotik qiymatigacha ko‘tariladi. Odatda, metrik funksiya $g_{\eta\eta}$ monoton emas, biroq o‘zining asimptotik qiymatiga yaqinlashishidan oldin, markazdagi minimumdan o‘zining maksimal qiymatiga oshadi. Ammo qora tuynuk chegarasiga yaqinlashganda, u markazdagi o‘zining maksimumi bilan monoton bo‘ladi va $g_{\eta\eta}(0)=4$ da qora tuynuk qiymatiga yaqinlashadi (1(b)-rasm). Qora tuynuk chegarasiga yaqinlashganda skalyar maydon juda kichik bo‘ladi. Qora tuynuk chegarasiga yaqinlashganda, R_C ning qiymati $R_C(0)=2$ ga yaqinlashadi (1(b)-rasm). Bir bo‘g‘izga ega yumronqoziq ini yechimlarida R_C monoton ravishda oshgan paytda, markazda ekvator va ikkita bo‘g‘izga ega yumronqoziq ini yechimlari uchun maksimum hosil bo‘ladi.



(a) (b)

1-rasm. O‘zaro ta’sirlashuv potensialiga ega yumronqoziq ini yechimlari uchun, $-g_{tt}$ va $g_{\eta\eta}$ metrik komponentalarni, ϕ skalyar maydonni va R_C sferik radiusni η radial koordinataga bog‘liqligi, (α,ϕ_c) parametrlar: (a) $(\alpha,\phi_c)=(1.4,-0.067)$, (b) $(\alpha,\phi_c)=(1.4,-0.95)$.

2-rasmda Massa va o‘zaro-ta’sirga ega yumronqoziq inlari (chap ustun) va faqat massaga ega yumronqoziq inlari (o‘ng ustun) uchun yumronqoziq ini yechimlarining mavjud bo‘lish sohasi ko‘rsatilgan. 2(a)-rasmda α bog‘lanish doimiysini markazda ϕ_c skalyar maydon qiymatiga bog‘lanish grafigi keltirilgan bo‘lib, yumronqoziq ini yechimlari α bog‘lanish doimiysining $\alpha_{\min}\approx 0.7$ minimal qiymatidan boshlab paydo bo‘ladi. α oshgani sari mos ravishda yechimlar oilasi ham bog‘lanish doimiysining $\alpha_{cr}\approx 1.02$ kritik qiymatgacha kengayadi.

α ning navbatdagi oshishi yumronqoziq ini yechimlarining ikkita bog‘lanmagan sohalariga olib keladi. ϕ_c ning kichik qiymatlariga ega sohalarni $\alpha_{\max}\approx 3.56$ gacha davom etishi mumkin. Boshqa tarafdan ϕ_c ning katta qiymatlariga ega sohalar buncha uzoq davom etmaydi. Ular $\alpha_{\lim}\approx 1.83$ chegara qiymatida tugaydi. Mavjud bo‘lish sohasi cho‘qqi singulyarlik (ko‘k) yechimlari, markazda singulyarlik yechimlari va skalyarizatsiyalangan EsGB qora tuynuk yechimlari orqali chegaralanadi. Bu Schwarzschild qora tuynugidan ularning ikkiga bo‘linish nuqtasigacha bo‘lgan barcha sohani o‘z ichiga oladi.

Faqat massa hadiga ega yumronqoziq inlari uchun 2(b)-rasmda α bog‘lanish doimiysining markazdagi ϕ_c skalyar maydon qiymatiga bog‘lanish grafigi ko‘rsatilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, mavjud bo‘lish sohasi asosan o‘zaro ta’sirga ega yumronqoziq inlarining mavjud bo‘lish sohasini faqat bir qismidan iborat bo‘ladi. Bu qism 2(a)-rasmdagi o‘ng tarafdagi sohaga mos tushadi, ya’ni ϕ_c ning katta qiymatlariga mos tushadi. Shunday qilib, o‘zaro ta’sir natijasida ϕ_c ning juda kichik qiymatlari va α bog‘lanish doimiysining juda katta qiymatlariga ega bo‘lgan yumronqoziq ini yechimlari hosil bo‘ladi.



(a) (b)

2-rasm. α bog‘lanish doimiysining kiritilgan qiymatlar to‘plami uchun yumronqoziq ini yechimlarining mavjud bo‘lish sohasi. Markazdagi ϕ_c skalyar maydonning har xil qiymatlarini α bo‘lanish doimiysiga bog‘lanishi. Shuningdek, yechimlarning chegaralari, skalyarizatsiyalangan EsGB qora tuynuklari (qora), singulyar yechimlar (yashil), cho‘qqi singulyarliklari (ko‘k), buzilishga ega yumronqoziq ini yechimlari (qizil) ko‘rsatilgan.

3-rasmda mavjud bo‘lish sohasining chegaralari ko‘rsatilgan. Cho‘qqi singulyarliklarga ega bo‘lgan yechimlar ushbu chegaralarning katta qismini tashkil qiladi. Cho‘qqi singulyarliklarning mavjudligi determinantga bog‘liq bo‘lib, ushbu determinant, ikkinchi tartibli ODTlarni funksiyalarning ikkinchi tartibli hosilalariga nisbatan diagonallashuvidan hosil bo‘ladi. Shuningdek, ushbu determinant $\eta_\star$ radial koordinataning qandaydir qiymatida tugunga ega bo‘lishi mumkin. Diagonalizatsiya determinant tomonidan taqsimlanishni o‘z ichiga olganligi sababli, harakat tenglamalari endi doimiy emas, balki o‘ziga xoslik xususiyatiga ega. Diagonalizatsiya determinant orqali qandaydir xususiyatni o‘z ichiga olganligi sababli, harakat tenglamalari $\eta_\star$ da uzoq regulyar bo‘lmaydi, biroq cho‘qqi singulyarligini o‘z ichiga oladi.



3-rasm. Mavjud bo‘lish sohasining chegarasi (o‘zaro ta’sirga ega namunalar): $\eta_\star$ ning ba’zi qiymatida cho‘qqi singulyarlikning paydo bo‘lishi: $\alpha = 1.1$ va markazdagi ϕ_c skalyar maydonning ikkita qiymati uchun f_1 (a) metrik funksiyaning va ϕ (b) skalyar maydon funksiyasining birinchi darajali hosilasi: $f_{1,\eta\eta}$ va $\phi_{,\eta\eta}$ lar ba’zi $\eta_\star$da sakrashni rivojlantiradi (ko‘k, $\phi_c = -0.5179$), $f_{1,\eta\eta}$ va $\phi_{,\eta\eta}$ lar ba’zi $\eta_\star$da ajraladi (qizil, $\phi_c = -0.1612$); R (c) skalyar egrilik va R^2_{GB} (d) Gauss-Bonnet hadini bir xil yechimlar uchun η radial koordinataga bog‘liqligi.

Yuqorida aytib o‘tilgan cho‘qqi singulyarliklar 3(a) va 3(b) rasmlarda keltirilgan bo‘lib, unda $\alpha = 1.0$ bog‘lanish doimiysi va markazdagi skalyar maydonning ikkita qiymatida, $f_{1,\eta}$ metrik funksiyaning va $\phi_{,\eta}$ skalyar funksiyaning birinchi tartibli hosilalarini η radial koordinataga nisbatan bog‘lanishi ko‘rsatilgan. $\phi_c = -0.5179$ bo‘lganda $f_{1,\eta\eta}$va $\phi_{,\eta\eta}$ ikkinchi tartibli hosilalar $\eta_\star$ radial koordinataning qandaydir qiymatida sakrashni vujudga keltiradi (ko‘k chiziq). Shuningdek, $\phi_c = -0.1612$ bo‘lganda $f_{1,\eta\eta}$va $\phi_{,\eta\eta}$ ikkinchi tartibli hosilalar $\eta_\star$ radial koordinataning qandaydir qiymatida ajraladi (qizil chiziq). Determinant $(\eta - \eta_\star)^g$ ga ega bo‘lib, $g < 1$ bo‘lsa, $f_{1,\eta\eta}$va $\phi_{,\eta\eta}$ ikkinchi tartibli hosilalar ajraladi. Determinant $(\eta-\eta_\star)$ga ega bo‘lsa, $f_{1,\eta\eta}$ va $\phi_{,\eta\eta}$ larning sakrashi vujudga keladi. Bu bog‘langan sakrashlar R (c) skalyar egrilikning va $R_{\rm GB}$ (d) GB skalyarining divergensiyalari deyiladi. Ular 3(c) va 3(d) rasmlarda bir xil yechimlar uchun ko‘rsatilgan.

Biz 4(a)-rasmda bir bo‘g‘izli yumrozqoziq ini geometriyasini vizuallashtirganmiz, bu yerda bog‘lanish doimiysi uchun $\alpha=1.7$ qiymatni va markazdagi skalyar maydon uchun $\phi_c=-0.0121$ qiymatni tanladik. 4(b)-rasmda ekvatorga va ikki bo‘g‘izga ega yumronqoziq ini tipining geometriyasi ko‘rsatilgan, ushbu yumronqoziq iniga $\alpha=1.7$ va $\phi_c=-0.03$ parametrlarni tanlash orqali erishildi. Rasmda ekvator va bo‘g‘izlar aniq ko‘rinadi. Ikkala yechim ham o‘zaro ta’sirlashuvchi yumronqoziq inlarining bitta oilasiga $\alpha=1.7$ tegishli. ϕ_c oshgani sayin, markazdagi bir bo‘g‘iz (minimum) dastlab ϕ_c ning kritik qiymatida degeneratsiyalangan bo‘g‘izga (egar nuqta) aylanadi va shundan so‘ng barcha tarafdan bo‘g‘iz (minimum) bilan o‘raladigan ekvator (maksimum) hosil bo‘ladi.

(a) (b)

4-rasm. (a) markazdagi $\phi_c=-0.0121$ skalyar maydon qiymatida va $\alpha=1.7$ bog‘lanish doimiysining qiymatida bir bo‘g‘izli yumronqoziq ini. (b) markazdagi $\phi_c=-0.03$ skalyar maydon qiymatida va $\alpha=1.7$ bog‘lanish doimiysining qiymatida ikki bo‘g‘izli yumronqoziq ini.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Skalyarizatsiyalangan Newman-Unti-Tamburino yumronqoziq inlari”** deb nomlangan va unda yuqori egrilikli gravitatsiya nazariyalarida Newman-Unti-Tamburino (NUT) zaryadiga ega skalyarizatsiyalangan yumronqoziq inlari o‘rganilgan. Skalyar zaryad va bog‘lanish parametrini o‘zgartirish orqali, skalyarizatsiyalangan NUT yumronqoziq inlarining mavjud bo‘lish sohalari va ularning NUT zaryadiga bo‘g‘liq bo‘lishi ko‘rsatilgan. Asosiy e’tibor bir bo‘g‘izli skalyarizatsiyalangan NUT yumronqoziq inlariga va ularni fizik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Eynshteyn-skalyar-yuqori egrilikli nazariyalar uchun quyidagi effektiv ta’sir integralidan foydalandik,

$$S=\frac{1}{16\pi}\int\left[R-\frac{1}{2}\partial_{\mu}\phi\partial^{\mu}\phi+F(\phi)I(g)\right]\sqrt{-g}d^{4}x. \qquad (7)$$

$F(\phi)$ bog‘lanish funksiyasi uchun biz α bog‘lanish doimiysiga ega kvadratik ϕ skalyar maydon bog‘lanishini tanladik, ya’ni

$$F(\phi)=\alpha\phi^{2}, \qquad (8)$$

$I(g)$ invariant uchun ikki xil tanlovni amalga oshirdik, (I) GB hadi uchun

$$I(g)=R_{\mathrm{GB}}^{2}=R_{\mu\nu\rho\sigma}R^{\mu\nu\rho\sigma}-4R_{\mu\nu}R^{\mu\nu}+R^{2}, \qquad (9)$$

(II) Chern-Simons (CS) hadi uchun

$$I(g)=R_{\mathrm{CS}}^{2}={}^{*}R^{\mu}{}_{\nu}{}^{\rho\sigma}R^{\nu}{}_{\mu\rho\sigma}, \qquad (10)$$

Bunda, ${}^{*}R^{\mu}{}_{\nu}{}^{\rho\sigma}=\frac{1}{2}\eta^{\rho\sigma\kappa\lambda}R^{\mu}{}_{\nu\kappa\lambda}$ yulduzchali Riemann tenzori 4-o‘lchamli $\eta^{\rho\sigma\kappa\lambda}=\epsilon^{\rho\gamma\sigma\tau}/\sqrt{-g}$ Levi-Civita tenzori bilan ifodalanadi. Ikkala invariant ham to‘rt o‘lchamli fazoda topologik bo‘lib, ϕ skalyar maydonga va $F(\phi)$ bog‘lanish funksiyasi orqali bog‘lanishi harakat tenglamalariga katta hissa qo‘shadi.

Agar (7) effektiv ta’sir integralini skalyar maydon va metrika bo‘yicha variatsiyalasak bog‘langan maydon tenglamalarining to‘plamiga erishamiz,

$$\nabla^{\mu}\nabla_{\mu}\phi+\frac{dF(\phi)}{d\phi}I=0, \qquad (11)$$

$$G_{\mu\nu}=\frac{1}{2}T_{\mu\nu}^{(\mathrm{eff})}. \qquad (12)$$

Bunda $G_{\mu\nu}$ Eynshteyn tenzori va $T_{\mu\nu}^{(\mathrm{eff})}$ effektiv energiya-impuls tenzori,

$$T_{\mu\nu}^{(\mathrm{eff})}=T_{\mu\nu}^{(\phi)}+T_{\mu\nu}^{(I)}. \qquad (13)$$

Ushbu effektiv energiya-impuls tenzori skalyar maydonni,

$$T_{\mu\nu}^{(\phi)}=\left(\nabla_{\mu}\phi\right)\left(\nabla_{\nu}\phi\right)-\frac{1}{2}g_{\mu\nu}\left(\nabla_{\rho}\phi\right)\left(\nabla^{\rho}\phi\right), \qquad (14)$$

va tegishli $I(g)$ invariantni ifodalaydigan qismlardan tashkil topgan. Tanlangan (I) invariant uchun

$$T_{\mu\nu}^{(GB)}=\left(g_{\rho\mu}g_{\lambda\nu}+g_{\lambda\mu}g_{\rho\nu}\right)\eta^{\kappa\lambda\alpha\beta*}R^{\rho\gamma}{}_{\alpha\beta}\nabla_{\gamma}\nabla_{\kappa}F(\phi), \qquad (15)$$

va (II) invariant uchun esa

$$T^{(CS)\mu\nu}=-8\left[\nabla_{\rho}F(\phi)\right]\epsilon^{\rho\sigma\tau\mu}(\nabla_{\tau}R^{\nu})_{\sigma}+\left[\nabla_{\rho}\nabla_{\sigma}F(\phi)\right]^{*}R^{\sigma(\mu\nu)\rho}. \qquad (16)$$

larga erishamiz.

N-NUT zaryadiga ega barqaror, sferik simmetrik yumronqoziq ini yechimlariga erishish uchun quydagi chiziqli element shaklidan foydalanildi,

$$ds^2 = -e^{f_0}\left(dt - 2N\cos\theta d\varphi\right)^2 + e^{f_1}\left[dr^2 + r^2\left(d\theta^2 + \sin^2\theta d\varphi^2\right)\right]. \quad (17)$$

Bunda ikkita f_0 va f_1 metrik funksiyalar va ϕ skalyar maydon funksiyasi faqat r radial koordinataga bog'liq.

Metrik va skalyar maydon uchun yuqoridagi (17) tenglamani (11) skalyar maydon tenglamasiga va (13) effektiv energiya-impuls tenzoriga ega (12) Eynshteyn tenglamalariga qo'yganimizda, beshta bog'langan, chiziqli bo'lmagan ODTlarga ega bo'lamiz.

5-rasmda GB invarianti (a) va CS invarianti (b) uchun mos ravishda, $\alpha / M^2 = 2.5$, $D / M = 2, n = N / M = 3$ va $\alpha / M^2 = 4, D / M = 1$, $n = N / M = 3$ parametrlar tanlanib, $-T_t^t + T_\eta^\eta \geq 0$ va $-T_t^t + T_\theta^\theta \geq 0$ nol energetik holatlarning radial koordinataga bog'lanishi ko'rsatilgan. Ushbu figuralar ikkala invariant uchun ham nol energetikli holat buzilishini aniq ko'rsatib beradi.



5-rasm. NUT yumronqoziq ini yechimlarining namunalari: (a) $\alpha / M^2 = 2.5$, $D / M = 2$ va $n = N / M = 3$ parametrlar bilan Gauss-Bonnet; (b) $\alpha / M^2 = 4$, $D / M = 1$ va $n = N / M = 3$ parametrlar bilan Chern-Simons; $-T_t^t + T_\eta^\eta \geq 0$ va $-T_t^t + T_\theta^\theta \geq 0$ nol energetik holatlarning η / M radial koordinataga bog'liqligi.

6-rasmda NUT yumronqoziq ini yechimlarining mavjud bo'lish sohalari GB invariant (a) va CS invariant (b) uchun, $n = N / M$ NUT zaryadining qiymatlar to'plami uchun ko'rsatilagn. Xususan, mavjud bo'lishning tegishli sohalaridan tashqari chegaralarni, α / M^2 bog'lanish doimiysining D / M skalyar zaryadga nisbatan bog'lanishi orqali ko'rsatamiz.

Yumronqoziq ini yechimining mavjud bo'lishi skalyar maydon mavjudligini talab qiladi. Tenglamalar $\phi \to -\phi$ almashtirishga nisbatan invariant bo'lgani uchun, mavjud bo'lish sohasi $D \to -D$ ga nisbatan simmetrik bo'ladi va u faqat

$D \geq 0$ ko‘rinish uchun yetarli. $D = 0$ skalyar maydon yo‘qoladi, bu esa haqiqiy umumiy nisbiylik nazariyasi yechimlari hosil bo‘ladigan $D = 0$ mavjud bo‘lish sohasining chegarasini tasvirlaydi. Birinchi chegara skalyarizatsiyalangan NUT qora tuynuklar chegarasiga mos keladi va u uzluksiz qizil chiziqlar bilan ko‘rsatilgan.



(a) (b)

6-rasm. $n = N / M$ NUT zaryadining bir qancha qiymatlari uchun mavjud bo‘lish sohasi (chap ustun: Gauss-Bonnet, o‘ng ustun: Chern-Simons): α / M^2 bog‘lanish doimiysining D / M skalyar zaryad. Uzluksiz qizil chiziqlar qora tuynuk chegarasini, uzlukli yashil chiziqlar degenerativ yumronqoziq ini chegarasini va nuqtali ko‘k chiziqlar singulyarlik chegarasini ko‘rsatadi.

Rasmlardagi ikkinchi chegara degeneratsiya deb ataladi va uzlukli yashil egri chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. Ushbu chegarani tushunish uchun yechimlarning sonli konstruksiyasidan foydalanamiz. Hisoblash ekstremumga erishilganda tugaydi. Ammo, prinsip jihatdan, ushbu ekstremumdan keyin ham hisoblashni davom ettirishimiz va bu yerda biz ikkinchi ekstremumni ham topishimiz mumkin. Shundan so‘ng birinchisi bo‘g‘izga, ikkinchisi esa ekvatorga to‘g‘ri keladi. Bog‘lanish doimiysi o‘zgarganligi sababli, ikkita ekstremma bir-biriga yaqinlashib, oxir-oqibat degenerativ ekstremumga erishiladi. Ushbu degenerativ ekstremumga erishilganda, uchinchi chegara bog‘lanish doimiysining aniq qiymatlarini ifodalaydi.

Oxirgi chegara singulyar deb nomlangan va nuqtali ko‘k egri chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. Ushbu chegaradagi hisoblashalar vazo-vaqtning biror joyida cho‘qqi singulyarlikning paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Ularning mavjudligi ODTning diagonalizatsiyasida paydo bo‘ladigan determinantidagi $\eta_\star$ radial koordinataning ma’lum bir qiymatida tugunning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Ushbu cho‘qqi singulyarliklar skalyarizatsalangan yumronqoziq inlarining umumiy xususiyatlariga juda yaqindek ko‘rinadi. Bu yerda ular nafaqat GB nazariyalari uchun, balki CS nazariyalari uchun ham mavjudligini ko‘ramiz.

Shuningdek ushbu figuralar NUT zaryadining oshishi bilan yumronqoziq ini yechimlarining mavjud bo‘lish sohasining kuchli oshishini ko‘rsatadi. GB bog‘lanishida NUT zaryadining yo‘qolish chegarasi skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlariga imkon beradi. CS bog‘lanishida esa NUT zaryadining yo‘qolishiga alohida e’tibor berilishi kerak, chunki bu bog‘lanishda yechimlarning ikkita sohasi paydo bo‘ladi. Birinchi soha GB holatiga o‘xshash, chunki bu soha bo‘ylab NUT zayadining kamayishi bilan bog‘lanish doimiysi kamayadi. Ammo ikkinchi soha bo‘ylab NUT zayadining kamayishi bilan bog‘lanish doimiysi oshadi. 6(b)-rasmdan ko‘rish mumkinki, NUT zaryadining $n = N/M = 3$, 2 va 1 qiymatlari uchun yechimlari birinchi sohaga mos keladi, NUT zaryadining $n = N/M = 0.5$ qiymati uchun esa yechimlari ikkinchi sohaga mos keladi. Qizig‘i shundaki, NUT zaryadining qiymatlari qanchalik kichik bo‘lsa, skalyarizatsiyalangan yechimlarni olish uchun zarur bo‘lgan bog‘lanish doimiysining qiymatlari shunchalik katta bo‘lar ekan.

Yumronqoziq ini markazining xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. Bularga nafaqat ekvatorlar, balki bo‘g‘izlar kirganligi uchun bu xususiyatlarni bo‘g‘iz xususiyatlari deb qaraymiz. Ushbu xususiyatlar uchun tegishli sohalarning chegaralarini chizish orqali 7-rasmda ularning mavjud bo‘lish sohalarini aniqlaymiz. Yuqorida aytib o‘tilgani kabi uzluksiz qizil chiziq orqali qora tuynuk chegarasini, uzlukli ko‘k chiziq orqali degeneratsiyani va nuqtali ko‘k chiziq orqali singulyarlik chegarasini ko‘rsatamiz.



(a) (b)

7-rasm. $n = N/M$ NUT zaryadining bir qancha qiymatlari uchun bo‘g‘izdagi xususiyatlar: (a) va (b) $R_{\rm th}/M$ sferik radiusni D/M skalyar zaryadga bog‘liqligi. Uzluksiz qizil chiziqlar qora tuynuk chegarasini, uzlukli yashil chiziqlar degenerativ yumronqoziq ini chegarasini va nuqtali ko‘k chiziqlar singulyarlik chegarasini ko‘rsatadi.

7-rasmda GB invariant (a) va CS invariant (b) uchun, $n = N/M$ NUT zaryadining bir nechta qiymati uchun $R_{\rm th}/M$ qiymatining sohasini D/M skalyar zaryadga nisbatan grafigi berilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, $n = N/M$ NUT zaryadining berilgan qiymatlari uchun skalyar zaryadning yo‘qolish chegarasida ($D/M \to 0$) ikkala invariant uchun ham bir xil yechimlarga erishiladi. Ushbu chegarada skalyar maydonning bir xilda yo‘qolishi, yumronqoziq ini yechimlarini hosil qilmaydi. Shu sababdan R_{th} / M ning qiymati faqatgina $n = N / M$ NUT zaryadining qiymatiga bog‘liq bo‘lgani uchun ushbu chegaradagi yechimlar Schwarzschild-NUT qora tuynuk yechimiga to‘g‘ri keladi.

NUT zaryadi nolga intilganda skalyarizatsiyalangan qora tuynuklardan iborat chegara cheklangan bo‘lib qoladi. GB holatida skalyarizatsiyalangan Schwarzschild yechimlariga erishiladi. CS holatida bog‘lanish doimiysi ajradi, NUT zaryadi nolga intilganidek, skalyar maydonining asosiy hadi sababli cheklangan qiymat qoldiriladi.

GB holi uchun $n = N / M \to 0$ bo‘lgan chegarada barcha mavjud bo‘lish sohasining ko‘rib chiqilishi chegaralangan, skalyarizatsiyalangan yumronqoziq ini yechimlariga olib keladi. CS holida $n = N / M \to 0$ chegara yechimlarning chegaralangan sohasiga imkon beradi. Shunga qaramay, R_{th} / M sferik radiusining mavjud bo‘lish sohasining o‘zgarishi chegarada butunlay silliqdir, chunki $n = N / M$ ning bir nechta kichik qiymatlari uchun hisoblashlar shuni ko‘rsatdi. chegaralanadigan soha 7(b)-rasmda ko‘rsatilgan. Ushbu rasmda yechimlar birinchi (katta $n = N / M$) yoki ikkinchi (kichik $n = N / M$) sohada bo‘lsa ham bir biridan farq qilmaydi.

XULOSALAR

“Yuqori egrilik hadlariga ega bo‘lgan gravitatsiya nazariyalarida yangi skalyarizatsiyalangan yechimlar” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. EsGB nazariyalarida potensialdan foydalanilib yumronqoziq ini yechimlari olindi. Energiya-impuls tenzori energetik holatlarnning buzilishiga olib kelishi ko‘rsatildi.

2. Markazda skalyar maydon qiymati va GB bog‘lanish doimiysini o‘zgartirib, yumronqoziq ini yechimlarining mavjud bo‘lish sohasini topdik.

3. Mavjud bo’lish sohasi, faqatgina massa hadi bilan taqqoslaganda, o‘zaro ta’sirning mavjudligi tufayli sezilarli darajada oshishi ko‘rsatildi. O’zaro ta’sir tufali mavjud bo‘lgan maydon parametrlarining yangi sohasida ko’plab yumronqoziq inlarining yechimlari olindi.

4. Ko‘pgina yumronqoziq inlari markazda bir bo‘g‘izga ega bo‘lishini ko‘rsatdik. Biroq, ba’zi yumronqoziq inlari har tomondan minimal bilan o‘ralgan markazda radiusning maksimumni hosil qiladi. Bunday holatda, yumronqoziq ini yechimlari bo‘g‘iz orqali har bir asimptotik tekis fazolarni bog‘laydigan ekvator va ikki bo‘g‘izga ega bo‘ladi.

5. GB va CS invariantlari uchun skalyarizatsiyalangan NUT zaryadli yumronqoziq ini yechimlarini oldik. Ushbu skalyarizatsiyalangan yumronqoziq inlarining mavjud bo‘lish sohalari ikkala invariantlar uchun ham bir xil turdagi chegaralardan iborat bo‘lib, ushbu chegaralar qora tuynuk va yumronqoziq ini chegaralaridan tashkil topgan.

Автореферат “Фан ва инновациялар” халқаро илмий журнали (International scientific journal “Science and Innovation”) таҳририятида таҳрирдан ўтказилиб, ўзбек, инглиз ва рус тилларидаги матнлари ўзаро мувофиқлаштирилди (20.09.2022).

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 ON AWARD OF SCIENTIFIC DEGREE AT INSTITUTE OF FUNDAMENTAL AND APPLIED RESEARCH “TIIAME” NATIONAL RESEARCH UNIVERSITY

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

MURODOV SARDOR NORMUMIN UGLI

NOVEL SCALARIZED SOLUTIONS IN GRAVITY THEORIES WITH HIGHER CURVATURE TERMS

01.04.02 – Theoretical physics

ABSTRACT
of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

Samarkand – 2022

The theme of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered by the Supreme Attestation Commission of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under No.B2021.1.PhD/FM570.

The doctoral (PhD) dissertation was carried out at Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

The abstract of the dissertation was posted in three (Uzbek, English, and Russian (resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.tiiame.uz) and on the website of "Ziyonet" informational and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisors:	**Ibadov Rustam Mustafaevich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor **Jutta Kunz** Dr., Professor, Oldenburg University, Germany
Official opponents:	**Narzilloev Bakhtiyor Murot ugli** Doctor of Physical and Mathematical Sciences **Yves Brihaye** Dr., Professor, the University of Mons, Belgium
Leading organization:	**Al-Farabi Kazakh National University**

The defense of the dissertation will be held on "14" October 2022, at the meeting of the Scientific Council DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 at institute of fundamental and applied research "TIIAME" National Research University (Address: 39, Kari-Niyaziy street, Tashkent 100000 Uzbekistan. Phone: (+99871) 237-19-31; fax: (+99871) 237-38-79, e-mail: ifar@tiiame.uz)

The doctoral (PhD) dissertation can be looked through in the Information Resource Center of Samarkand State University named after Sharof Rashidov (registered under No. 95). (Address: 15, University boulevard, 140104, Samarkand city. Phone: (+99866) 239-11-51).

The abstract of dissertation was distributed on "30" September 2022.
(Registry record No. 2 dated "30" September 2022).

B.J. Ahmedov
Chairman of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, DSc, professor

E.X. Karimbaev
Scientific Secretary of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, PhD

A.B. Abdikamalov
Deputy chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, DSc

INTRODUCTION (Annotation of PhD dissertation)

The Topicality and demand of the dissertation topic. Recent researches around the world suggest that new solutions of modified Einstein's field equations predict the existence of not only black holes, but also wormholes. In the kinds of literature, wormholes are referred to as "tunnels" that connect distant regions of the universe or "bridges" that connect different universes. Initially, in 1935, a solution to the wormhole (Einstein-Rosen bridge) was proposed by Einstein himself. In this field, The fundamental work of M.S. Morris, K.S. Thorne, and U. Yurtsever and the geometrodynamics of J.A.Y.Wheeler, form the basis of modern research. One of the reasons why wormhole solutions have been studied for so long is that it allows humanity to travel long distances between stars and galaxies. For this reason, a theoretical study of the nature of wormholes is important.

In world science, the study of wormholes has become particularly relevant in recent decades. This is due to the modern interest in "exotic" forms of matter. It is known that the presence of wormholes requires some exotic form of matter, which violates several energy conditions. At present, there is evidence that such matter may exist in the universe. This is primarily due to the discovery of the accelerated expansion of the Universe, which requires the introduction of a new exotic matter called "dark energy". However, in some alternative theories of gravity, it is shown that the violation of energy conditions can also be due to gravitational interaction. Indeed, alternative theories of gravity can give rise to an effective stress-energy tensor that leads to violation of the energy conditions without the need for exotic matter. The most notable of these alternative theories of gravitation are the Einstein-scalar-Gauss-Bonnet and Einstein-scalar-Chern-Simons theories, and the study of wormholes is now a topical issue in these theories.

In recent years, in our country, more and more attention has been paid to the development of current directions of fundamental and applied research. In particular, the development of astrophysical research, which is one of the promising areas, is an important issue today. The main directions of fundamental research and development and their practical application for the successful development of science in our country are reflected in the Strategy[12]for the further development of the Republic of Uzbekistan from 2022-2026. Therefore, the research of scalarized solutions in higher curvature gravity theories remains one of the urgent issues in the field of fundamental research.

This dissertation serves to a certain extent in the implementation of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of October 8, 2019 "On approval of the Concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", of the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5032 of March 19, 2021 "On measures to improve the quality of education and development of scientific research in the field of physics", No. PQ-2789 of February 17, 2017 "On measures to further improve the

[1] Decree No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 1, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026"

activities of the Academy of Sciences, the organization, management, and funding of research" and tasks set out in other normative legal acts on the subject.

